



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



### MUHAMMAD YUSUFNING DOSTONCHILIKDAGI MAHORATI VA SHE‘RIYATIDA VATANPARVARLIK TUYG‘USI

**Raxmatova Gulsevar.**

*Qarshi davlat universiteti,  
Filologiya fakulteti talabasi.*

**Sh.Karamova**

*Ilmiy rahbar: dotsent*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada iste’dodli o‘zbek shoiri Muhammad Yusufning dostonchilikdagi mahorati va uning dostonlaridagi falsafiy, haqqoniy fikrlar mazmuni va she‘riyatidagi vatanparlik ruhi ufurib turishi haqida so‘z yuritamiz.*

**Kalit so‘zlar:** *Dostonchilik, mahorat, badiiy adabiyot, tasavvur, fikr, shoir, timsol, falsafiylik.*

Iste’dodli o‘zbek shoiri Muhammad Yusuf inson ruhiyatini, kamolotini, uning o‘lmas qirralarini teran his qiladi. Shuning uchun ham Muhammad Yusuf she‘rlarida, dostonlarida inson ruhiyati va uning his-tuyg‘ulariga alohida e’tibor qaratadi. Uning barcha asarlarida faqat va faqat ezgulik va komil shaxs tarbiyasi birinchi o‘ringa qo‘yiladi. Shuningdek, olam va odam xususidagi mushohadakor fikrlari, har bir shaxs ziynatidagi mukammalliklar, insonlarning kelajak sari intilishlariga zukkolik va teranlik bilan jiddiy diqqatini qaratgan. Bundan tashqari, Muhammad Yusuf asarlarida vatanni ulug‘lash, uni suyish va ardoqlash haqida ko‘plab fikrlar yuritilgan.

Uning dostonlarini kuzatar ekanmiz, tasavvurimizni ajib bir his chulg‘ab oladi. Bizga arzimas bo‘lib ko‘ringan manzaralar keyinchalik insonning butun vujudini junbushga keltiradi. Bir qarashda oddiy bo‘lib tuyulgan satrlari ostida go‘zal ma‘no borligini ilg‘ash qiyin emas. Aslini olganda Muhammad Yusuf bir so‘z orqali satrga ko‘plab ma‘nolar bera oladi.

Uning “Osmonning oxiri” dostonig nazar tashlasak, bu kabi voqealarga duch kelamiz: “*...oftob qayerga botadi, deyman bobomga. Osmonning oxiriga, deydi u. Oftob osmonning oxiriga borib botmaydi, balki yig‘laydi.*”

*Dunyodagi barcha yo‘llarning oxiri –yig‘i. Dunyoning oxiri –qiyomat ham yig‘i. Odam yig‘i nimaligini anglab yetgunicha yaqinlari olamdan o‘tgan bo‘ladi...”*

Bu falsafiy va haqqoniy fikrlar zamirida, insoniyat dunyoga keldimi demak bir kun ketish ham borligini uqtirmoqchi. Mana shu satrlardagi yana bir ma‘no umr o‘tkinchi ekanligi, uning qisqaligi va mana shu qisqa umr davomida ba’zi narsalarni anglab yetguncha umr tugab qolishi mumkinligini kishilarga anglatmoqchi bo‘lyapti. Bu fikrlar zamirida bis shuni anglab yetmog‘imiz lozimki, dunyoga keldikmi, dunyoga nima uchun kelganimizni anglab, uning mohiyatini tushunib va o‘zimizdan biror iz qoldirib ketmog‘imiz lozim. Endi bu yerdagi majoziy ma‘noda qo‘llangan quyosh tushunchasiga





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



keladigan bo'lsak, har bir kunimizni yoritib, bizga nurafshon nur taratib turgan quyosh ham o'z zaminiga tongga qadar bosh qo'yadi. U o'z zaminiga bosh qo'yishi bilan ko'ngil xotirjamligi uni tark etadi. Sababi shuki, osmon va yer qari u uchun yana o'rin ajratadimi yo'qmi hayotot olamiga sho'ng'iganicha ko'ziga yosh oladi. Shoir quyosh detali orqali "insoniyat deb atalmish hayotning buyuk mo'jizasiga" murojaat etmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. O'tayotgan har bir kunimiz uchun yaxshimi yomonmi shukrona aytishimiz kerakligi, va har bir o'tayotgan kunimiz oxirida biz o'zimizni taftish qilib bugun men nimalar qilishga ulgurdim, nimalar qila oldim degan savolni o'zimizga berib ko'rishimiz lozimligi asarning bosh g'oyasidir.

Muhammad Yusufning bu janrdagi asarlarida insonni tushunish hamda tushuntirish borasida timsollarida falsafiylik kuchli, psixologizm yetakchi, shaxs ichki dunyosini aks ettirishda ramzlar asosiga qurilgan badiiy tafakkur tabiati yozuvchi ijodining individualligidan dalolat berishini ta'kidlab o'tish joizdir.

*"Chaqaloq uchun hamma narsaning boshi- oxiri Ona ko'kragi. Oftobni chaqaloqqa o'xshatish mumkin bo'lsa, uning boshi osmonning ko'ksida. Xo'sh, Osmonning boshi kimning ko'ksida? Tog'larning boshi yerning ko'ksida. Yerning boshichi?.. bilmayman. Bilmaganimdan hijolat ham emasman. Bu yorug' dunyo aslida "bilmayman" degan so'zdan iborat. Men qachon tug'ilganimni aytib berishgan. Men qachon yurishni o'rganganimni yolg'iz onam biladi. Qachon tilim chiqqanini ham...*

*Men birinchi she'rimni qachon yozganimni o'zim bilmayman .*

*Xo'sh, qani kim aytadi, oxirgisini qachon yozaman?..."*

Istiqlol davri o'zbek poemalarida "mitti" insoniyatning katta va chigal ichki dunyosidagi behudud poyonsizlikni, turfalikni, kamchiliklarni xilma-xil ko'rinishlarda tadqiq etishdi. Uning yangiligi sifatida so'z erkinligiga cheksizlik belgisini qo'ya oldi. Ijodkor faoliyati inson ichki kechinmalari tasarrufida tug'yon otdi. Buni endi hech qanday yov boshqa oqimga qaratib ketolmaydi, u faqat o'zining ummonida sayr etadi.

*"Odam dunyoga bir marta keladi. Shu bir kalima so'z bilan qancha savob ishlarni qilish mumkin. Shu bir kalima so'z pinjida qancha gunohga botishi mumkin. Bu gapni agar qariqiz aytsa, yig'laging keladi. Satanglar aytsa, ensasi qotadi odamning. Qo'y, o'sha sevgi-pevgingni, ajrashinglar, deydi boyyuchcha ona qiziga. Odam dunyoga bir marta keladi! "*

Shoir inson ma'naviyatining serqirra jihatlarini tekshirish, odam ruhiyatidagi ko'z ilg'amas sezimlarni tadqiq etishga urinishda shakliy-uslubiy izlanishlar olib borayotgan o'zbek ijodkorlarining sezilarli yutuqlari ham , bartaraf qilinishi lozim bo'lgan nuqsonlarni ham ko'zga tashlanganini beixtiyor ifodalamoqda. Insoniyat dunyoga keldimi, u faqat ezgulik yo'lidagi ilmu-amallarni bajarishi kerakligini targ'ib qiladi. Savob ishlari orqali ko'ngillarni zabt etadi. Yuqorida taqdim etilgan shoir fikrida shunday mulohaza yuritishni joiz topdik:

Aytilgan har bir so'z zamirida ham yaxshilik, ham yomonlik jihatleri qad ko'targan. Uni kishilar o'zining butun borlig'i va dunyoqarashidan kelib chiqib tahlil etadi. Bildirilgan fikr





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



kimnidir ko‘kka ko‘tardi, kimnidir oxiri yo‘q dengizga uloqtirmoqda. Mukammal tuyg‘ular tug‘yoni umidbaxsh yo‘llar bilan ulug‘ va bepoyon dengiz irmog‘iga olib bormoqda. Sevgi degan buyuk ne‘matni kimlarnidir qo‘lida ovunchoq bo‘lishini xohlamagan ijodkor *“satanglar tilidan o‘sha sevgingni qo‘y, ajrashinglar”* – deya mulohazaga tortadi. Hatto ilohiy tuyg‘uni buyuk hilqat qadridek qadrlaydi, uni kengliklarda mavj urib parvoz etishiga zamin yaratadi. Ko‘ngil tubiga jarohatlarsiz kirib borib, hasta dillarga shifo beradi va iliq tafti orqali nur taratib uni yoritishga harakat qiladi.

“Osmorning oxiri” poemasini davr kishilar obrazini murakkab va haqqoniy chizgilarda tasvirlash jihatidan istiqloq davri poemachiligida eng e‘tibor topgan asarlardan biri sifatida ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov aytganidek, Muhammad Yusuf noyob iste‘dod egasi, mehribon, sofdil, mard va kamtarin inson edi. Muhammad Yusuf rostgo‘y shoir, halol va pokiza qalb egasi. Shuning uchun ham uning she‘riyati butun ma‘naviyatga to‘la muhabbat haqida kuylaydimi, bevafo yor haqida qo‘shiq to‘qiydimi, yoki tariximiz, taqdirimiz haqida kuylaydimi, vatan madhi haqida bitadimi barchasida hamisha hayotga, haqiqatga hamnafaslik sezilib turadi. Uning she‘rlari sodda, oddiy, ravonligi bilan xalq og‘zaki ijodiga hamohang ko‘rinadi. Muhammad Yusufning bir o‘qiganda umuman vatan madhiga yaqin ham bo‘lmagandek ko‘rinadigan she‘rlari zamirida ham vatan madhi mavjud. Misol uchun:

Mendan nima qolar, ikki misra she‘r,  
Ikki sandiq kitob, bir uyum tuproq.  
Odamlar ortimdan nima desa der,  
Lola, lolajonim, lolaqizg‘aldoq.

Ushbu she‘rda ham inson va hayot, ona vatan tushunchalari mujassamlashgan. Muhammad Yusufning "O‘zbekiston" she‘ri esa vatan madhiga bag‘ishlangan she‘rlaridan biri hisoblanadi. Muhammad Yusuf o‘zi o‘zbek adabiyotiga o‘zbek do‘ppisi bilan kirib kelgan. Unda o‘zbek g‘ururi, vatanparvarlik tuyg‘ulari aniq sezilib turardi. U vatanni qanday qilib balandparvoz gaplarsiz sevish mumkinligini o‘z she‘rlari orqali ifodalab bergan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Muhammad Yusuf o‘zbek nazmining taraqqiyotida, xalqona ohang ruhidagi she‘rlari va o‘ziga xos uslubi bilan alohida o‘ringa ega bo‘lgan ijodkorlardan. Uning ijodida samimiy va xalqona ohanglar aniq ko‘zga tashlanib turardi. Oddiy so‘zlar bilan juda chuqur mazmunga ega bo‘lgan, ma‘noli satrlar yozgan ijodkor hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Xalq bo‘l elim”. M.Yusuf. –Toshkent, “O‘zbekiston” 2017.
2. “Saylanma” II jild. M.Yusuf. –Toshkent “O‘zbekiston” 2009.
3. Tafakkur.net

